

“JENNI GERXARDT” ROMANIDA ICHKI MONOLOGLAR TARJIMASI
(asliyat-ruscha-o‘zbekcha tarjimaning qiyosiy tadqiqi)

Atabayeva Nilufar Atamuratovna,

Abu-Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

nilufaratabayeva1983@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18409908>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Teodor Drayzerning “Jenni Gerxardt” romani va uning rus hamda o‘zbekcha tarjima nuxsalarini yaratgan Mariya Lorie va Nora Gal hamda Erkin Nosirovlarning tarjimonlik mahorati tahlil etildi. Xususan, roman matnida uchraydigan qahramon “ichki monolog”lari tarjimasiga doir kuzatishlar asliyat-ruscha-o‘zbekcha variantlar bilan taqqoslanib xulosalar taqdim qilindi.

Kalit so‘zlar: Teodor Drayzer, asliyat matn, ruscha tarjima, o‘zbekcha tarjima, ichki monolog, adekvatlik, Mariya Lorie va Nora Gal, Erkin Nosirov.

Аннотация. В данной статье проанализирован роман Теодора Драйзера «Дженни Герхардт», а также переводческое мастерство переводчиков Марии Лори, Норы Галь и Эркина Носирова, создавших русскую и узбекскую версии произведения. В частности, были рассмотрены особенности перевода «внутренних монологов» персонажей романа, проведено сопоставление оригинального текста с русским и узбекским вариантами, на основе чего представлены соответствующие выводы.

Ключевые слова: Теодор Драйзер, оригинальный текст, русский перевод, узбекский перевод, внутренний монолог, адекватность, Мария Лорие и Нора Галь, Эркин Носиров.

Annotation. This article analyzes novel “Jennie Gerhardt” by Theodore Dreiser, as well as the translation skills of Maria Lorie, Nora Gal, and Erkin Nosirov, who translated the Russian and Uzbek versions of the work. In particular, the study examines the translation of the characters’ “internal monologues” comparing the original text with the Russian and Uzbek versions, and presents conclusions based on this comparative analysis.

Key words: Theodore Dreiser, original text, Russian translation, Uzbek translation, internal monologue, adequacy, Maria Lorie and Nora Gal, Erkin Nosirov.

Kirish. Mashhur Amerika yozuvchisi T. Drayzer (1871-1945) o‘zining “Jenni Gerxardt” romanini 1911 yilda yozdi. Asarda Jenni tug‘ma pok tuyg‘u sohibasi yumshoq xarakter egasi sifatida tasvirlanadi. Jenni halokatli moliyaviy vaziyat bosimi ostida bo‘lganligi sababli axloqiy me‘yorlarni buzib o‘tishga majbur edi, lekin shu bilan birga u aldama, balki yuragining amriga sodiq qoldi. Ha, Jenni senator Brenderni va keyinchalik Lester Keynni chin dildan va chuqur sevardi, ammo ular bilan bo‘lgan munosabatlariga Jennining taqdiriga tushgan qiyin hayotiy sinovlar jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Akasi Sebastyan oilasiga yordam berish maqsadida ko‘mir tushirayotgan paytda qamoq jazosiga mahkum qilinadi. Unga yordam berish uchun u senator Brenderning oldiga boradi. Otasi qo‘llarini kuydirib, og‘ir jarohat olgan paytda, oila tirikchiliksiz qoldi va Jenni Lester Keynga murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Xullas, romanda matonatli va samimiy ayol Jenni Gerxardtning hayoti, qismati va iztiroblari hikoya qilingan. Roman 1982 yilda taniqli o‘zbek tarjimoni Erkin Nosirov tomonidan rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Asliyatdagi asar bosh qahramonining botiniy olamini yaqqol ifodalovchi ichki monologlar mutarjim tomonidan bilvosita rus tili orqali o'zbek tiliga qay darajada maromiga yetkazib tarjima qilinganligini tahlilga olamiz.

Adabiyotlar tahlili. "Ichki monolog – personajning moddiylashmagan, o'ziga qaratilgan va ichidagina kechuvchi nutqi; badiiy psixologizmning bevosita shakli hisoblanadi" [4.]. Badiiy asarda ichki monolog qahramonlarning ichki o'ylarini, ong osti oqimini teran ochib beruvchi psixologik badiiy vositalardan sanaladi. Adabiyotshunoslikka oid nazariy manbalarda ichki monologning hajmi – ya'ni matnda qancha uzunlikda bo'lishi – asarning janri, uslubi va muallifning maqsadiga qarab turlicha bo'lishi ta'kidlanadi.

1. Qisqa ichki monolog.

Monologning bu turi odatda hikoya yoki dramatik asarlarda uchraydi. Hajmi bir necha jumla yoki bir necha satr bo'ladi. Qahramonning birdaniga paydo bo'lgan fikrini, hayajonini ko'rsatish maqsadida qo'llaniladi.

2. O'rta hajmli ichki monolog.

Bunday monologlar qissalar yoki romanlardagi epizodik tahlillarda ishlatiladi. Hajmi bir paragrafdan bir necha paragraflargacha bo'ladi. Asosan personajning ichki kurashini, tafakkurini ochishga xizmat qiladi.

3. Uzoq ichki monolog.

Psixologik romanlarda keng uchraydi. Hajmi bir necha sahifa yoki butun bob darajasida bo'lishi mumkin. Inson tafakkurining murakkab oqimini, ichki qarama-qarshiliklarini ko'rsatish maqsadida ishlatiladi. Aytish kerakki, bunda ko'pincha "ong oqimi" usuli ishlatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qahramon ichki xarakteridan kelib chiqqan holda, uning dilidagi ichki monologlar ham turlicha ifodalanadi. Shu bois tarjimada qahramon ichki monologlarini adekvat tarzda tarjima etish tarjimon yelkasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Teodor Drayzerning "Jenni Gerxardt" romani bosh qahramoni Jenniga tegishli ba'zi bir ichki monolog parchalarning (rus va o'zbek) M. Lorie va N. Gal va E. Nosirovlarning tarjimonlik mahorati va so'zga daqiqligini misollar yordamida asliyatga solishtirib ko'ramiz.

Tahlillar va natijalar. Asliyatda: *"I'll have to tell him something," she thought with a sudden upwelling of feeling as regarded the seriousness of this duty. "If I don't do it soon and I should go and live with him and he should find it out he would never forgive me. He might turn me out, and then where would I go? I have no home now. What would I do with Vesta?" [1.154.].*

Ruschada: *«Я должна ему сказать, – с волнением думала она; на нее вдруг нахлынуло сознание всей серьезности этого долга. –Если я сразу не признаюсь и мы станем жить вместе, а потом он все узнает, он мне никогда не простит. Он*

может меня выгнать – а куда я пойду? У меня нет больше дома. Что мне тогда делать с Вестой?» [2.82.].

O‘zbekchada: *“Unga aytmasam bo‘lmaydi,- o‘ylardi Jenni o‘zicha hayajon bosib; shunda birdan bu juda jiddiy narsaligi xayoliga kelib qoldi.- Bu gapni unga boshidan aytmasamu birga tura boshlasak, keyinchalik hammasini bilib oladi, ana unda, meni kechirmaydi. Haydab yuborishi mumkin, o‘shanda qayga boraman? Boshqa uyim yo‘q, Vesta bilan qayoqqa boraman?”* [2.138.].

Mazkur parchada Jenni qizi Vestani borligini Lesterdan yashirgani va bu sirni oshkor qilmasa oxiri yaxshilikka olib kelmasligi borasida xavotirga tushadi. Unda Jenni obrazining ruhiy holati, qo‘rquvi va ichki ziddiyatlari juda aniq ochib berilgan. Monologda ikki qarama-qarshi fikr (haqiqatni aytish zarurati va oqibatlardan qo‘rquv) to‘qnashadi. Jenni haqiqatni aytish axloqiy jihatdan to‘g‘ri ekanini tushunadi, ammo bu qaror uning hayoti va xavfsizligiga tahdid solishi mumkinligini o‘ylaydi. Jenni o‘zini ijtimoiy jihatdan himoyasiz his qiladi. Bu ichki monolog Jennining hayoti erkakka bog‘liq ekanini, ayolning jamiyatdagi zaif o‘rnini ko‘rsatadi. Tarjimada ushbu ichki monolog mazmun jihatdan to‘liq va aniq ifodalangan. Inglizchadagi murakkab shartli konstruktsiya o‘zbekchada ravon va tabiiy qayta tuzilgan. Jumlalardagi emotsionallik tarjimada asliyatga hamohang tarzda namoyon bo‘lgan. Jenni obrazining ichki qo‘rquvi, nochorligi, Vesta uchun kuchli xavotiri kitobxonga aniq yetkazilgan va tarjima muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Asliyatda: *“If I can only get there,” she kept saying to herself; and then, with that frantic unreason which is the chief characteristic of the instinct - driven mother: “I might have known that God would punish me for my unnatural conduct. I might have known – I might have known”* [1.182.].

Ruschada: *«Только бы успеть! – твердила она про себя и, в порыве горя теряя, как все матери, способность рассуждать, упрекала себя; – Я должна была знать, что бог наказывает меня за мой грех. Я должна была, должна была знать...»* [2.88.].

O‘zbekchada: *“Yetib borsam bo‘lgani!- derdi Jenni o‘ziga-o‘zi. Dardi-dunyosi qorong‘iligidan hamma onalar singari faqat o‘zidan ko‘rardi. – Xudo gunohim uchun jazolashini bilishim kerak edi, kerak edi...”* [2.66.].

Asliyatda *“frantic unreason”* va *“instinct-driven mother”* iboralari orqali mantiqsizlik holati ta’kidlanadi. O‘zbekcha tarjimada asar qahramoni Jennining ruhiy holati *“Dardi-dunyosi qorong‘iligidan hamma onalar singari...”* deb o‘zbekchalashtirilgan. Bu ifoda ona obrazini umumlashtiradi, instinktiv harakatni milliy idrokka mos tarzda ochib beradi. Mazkur transformatsiya mazmuniy adekvatlikni saqlagan holda erkin tarjima namunasi hisoblanadi. Chunki *“Dardi-dunyosi qorong‘i”* obrazli, emotsiyanal iborasi o‘zbek tiliga xos badiiy tasvir ifodasi hisoblanadi. Mazkur ichki monologning o‘zbek tiliga tarjimasi badiiy tarjima mahoratining yorqin namunasi bo‘lib, unda personajning vahima, ona instinkti va o‘zini ayblash ruhiy holati tabiiy va ta’sirchan tarzda ifodalangan.

Tarjimon milliy til imkoniyatlarini faol ishga solib, asliyat mazmunini saqlagan holda uni o‘zbek tilining emotsional va stilistik imkoniyatlari bilan boyitishga erishgan. Rus va o‘zbek tarjimoni mazkur iborani asliyatdagi variantga mos ekvivalent topa olgan, deb xulosa chiqarish mumkin. Zero, E. Nosirov asliyatdagi “*frantic unreason*”ga mos ravishda “*dardi-dunyosi qorong’i*”, rus tarjimonlari M. Lorie va N. Gal “*в порыве горя теряя*” deb o‘giran.

Asliyatda: “*Oh, well,*” she thought finally, “*he is not going to leave me right away - that is something. And I can bring Vesta here*”. [1.192.].

Ruschada: “*Что ж, – подумала она наконец, – пока он меня не бросает – и то хорошо. И Веста будет со мной*”[2.92.].

O‘zbekchada: “*Nachora,- dedi Jenni ichida nihoyat, -hozircha meni tashlab ketmayapti, shunisiga ham shukur. Vesta ham bag‘rimda bo‘ladi*”[2. 174.].

Ichki monologdagi “*that is something*” jumlasini o‘zbekchada “*bu ham bir nima*” ma’nosini anglatadi. Rus tarjimoni “*u mo xooroo*” (*buyam yaxshi*) tarzida o‘z ona tilida ma’no jihatdan chiroyli tarjima qilsa, o‘zbek tarjimoni “*shunisiga ham shukur*” deya o‘zbek mentalitetiga mos ravishda “*shukr*” leksik birligini qo‘llash orqali badiiy tarjima uslubini xalqchil tarzda kitobxonga yetkazgan. Keyingi jumlada “*And I can bring Vesta here*” asliyatda *Vestani ham bu yerga olib kelaolaman*” deya yozilgan. Rus tarjimoni “*И Веста будет сомной*” (*Vesta ham men bilan bo‘ladi*) deb tarjima qilgan. O‘zbekchada esa E. Nosirov “*Vesta ham bag‘rimda bo‘ladi*” deya tarjimon onalik instiktiga hos tarzda psixologik emotsionallik asosida jummalarni mahorat bilan ifodalay olgan. Yani tarjimon E. Nosirov asliyat va ruscha nusxalardagi leksik birlik o‘rniga frazeologik birlikni qo‘llash orqali badiiy matn ta’sirchanligini oshirib bergan. Zero, “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da “bag‘ir” so‘zi bilan yasalgan bir qancha iboralar sinonimiyasi kiritilgan. Jumladan, lug‘atda “bag‘ri butun”, “bag‘ri ezilmoq”, “bag‘ri keng”, “bag‘ri kuymoq”, “bag‘ri mehnat o‘tina kabob bo‘lmoq”, “bag‘ri tosh”, “bag‘ri yonmoq”, “bag‘riga olmoq” kabi jami 26 ta iboralar sinonimiyasi berilgan [5. 65-69.]. Tarjimon E. Nosirov T. Drayzerning “Jenni Gerxardt” romani matnida uchraydigan qahramon ichki monologlarini o‘girishda o‘zbek xalqining obrazli, o‘ziga xos, xalqona iboralaridan unumli foydalana olgan. Mutarjim butun boshli xalqning so‘zlar arsenalidan kerakli so‘zlar, iboralar, metaforalar, idiomalar, obrazli ifodalarni o‘rni-o‘rnida qo‘llab, roman tarjimasida katta muvaffaqiyatga erishgan. Shuni alohida ta’kidlash lozim, qahramon ichki monologlarini ruschalashtirish va o‘zbekchalashtirishda frazeologizmlar tarjimasiga alohida diqqat qaratishgan. Chunki, iboralar qahramonning ruhiy holatini chuqur va teran aks ettirib beruvchi vositadir.

Asliyatda: “*That wasn't so bad, thought Jennie as she watched Mrs. Stendahl drive away. “She is very nice, I think. I’ll tell Lester about her*”[1.226.].

Ruschada: “Кажется, сошло не плохо, – подумала Джесси, глядя вслед удаляющейся коляске– Она приятная женщина. Надо будет рассказать Лестеру” [2. 109.].

O‘zbekchada: “*Yomon chiqmadi shekilli, –dedi ichida Jenni olislab borayotgan izvoshdan ko‘zini uzmay turarkan–Yoqimtoy juvon. Buni Lesterga aytish kerak*” [2. 205.].

Ichki monologning monolog mulohaza turiga mansub bo‘lgan bu parchani tarjima qilishda o‘zbek tarjimoni ruscha tarjimaga tayangan. Fikrimizni isboti sifatida mazkur tahlilga e‘tibor qaratamiz. Asliyatdagi “*She is very nice, I think*” jumlasini “*U juda yaxshi deb o‘ylayman*” mazmunini anglatadi. Rus tarjimoni “*Она приятная женщина*” deb “*женщина*” (ayol) so‘zini o‘rinli qo‘shgan. Xuddi shunday o‘zbek tarjimoni ham “*Yoqimtoy juvon*” deb “*juvon*” leksik birligini rus tiliga hamohang tarzda qo‘shib tarjima qilgan. Undan tashqari tarjimaning muvaffaqiyati sifatida quyidagi farqlarni ham ko‘rsatish mumkin. O‘zbekchadagi *shekilli* so‘zi inglizcha “*That wasn’t so bad*”ning noaniqlik, mulohaza ohangini o‘zbekona ifodalagan shakli hisoblanadi. O‘zbekchadagi “*dedi*”, “*ichida*” ichki monologni o‘zbek tiliga juda tabiiy moslashtirilgan shakli bo‘lib, inglizchadagi “*thought*” (o‘yladi) ning ichki monologga xos soddalik va tabiiylikni saqlagan shaklidir. O‘zbek tarjimasidagi “*izvosh*” milliy-koloritli detal ruscha “*коляска*”ning tarjimasini bo‘lib, tarixiy davr koloritini, davr ruhini saqlaydi. Inglizchada ayolni aynan aravada ketgan sahnasi ifodalanmagan. Faqat “*drive away*” (*haydab ketdi*) tarzida keltirilgan. Har ikkala tarjimada ham XIX asr birinchi yarmiga xos bo‘lgan transport turi “*kolyaska*” (*arava*), “*izvosh*” arxaizmlari qo‘llanilganligi kitobxon ko‘z oldida o‘sha davr tasvirini gavdalantiradi. Tarjimonlar so‘zma-so‘z emas, mazmuniy-ekvivalent tarjima yarata olganlar. Asarni mahorat bilan tarjima qilib, faqat ma‘noni emas, uslub va ohangni o‘zbek tilida qayta yaratganlar. O‘zbekcha ichki monologga xos soddalik va tabiiylikni saqlaganlar. T. Drayzer matnini tarjima emas, badiiy qayta ijod darajasiga olib chiqishgan.

Xulosa. T. Drayzer romanlarida ichki monologlar u qadar katta parchalarni tashkil etmaydi. Xususan, bu “*Jenni Gerxardt*” romani matnini tahlil etish jarayonida ichki monologlarning ko‘zdan kechirilishi natijalari shuni ko‘rsatdiki, asarda kichik ichki monologlar yuzlab topiladi. Ammo ular ko‘pincha muallif bayoni bilan birikkan holatda, qorishiq holda ko‘p uchraydi. Jenni personajiga tegishli o‘nlab ichki monologlar M. Loriye va N. Gal hamda E. Nosirov tomonidan katta mahorat bilan o‘z milliy ona tillariga o‘girilgan. Romanda ichki monologning juda ko‘p turlari uchraydi. Har ikki tarjimon Jenni va boshqa qahramonlarga tegishli ichki monologlarni asliyat bilan tenglasha oladigan darajada muvaffaqiyatli tarjima qilgan.

Badiiy tarjima jarayonida kitobxon ruhiyatiga qahramonlar o‘y-kechinmalarini asliyatdagidek yetkaza olish mutarjimdan katta mehnat talab etadi. Buning uchun mutarjim o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lishi bilan birga, shu tildagi so‘zlarni, iboralarni, jummalarni yoki maqol-matallarni maromiga yetkazib tarjima qila olishi lozim.

Buning uchun tarjimondan bevosita kamida ikkita xorijiy tilni bilishi, shuningdek, o‘sha til va o‘sha davr xalqining turmush tarzi, etnografiyasini, madaniyatini va tarixini mukammal bilishi talab etiladi. Badiiy asarni tarjima qilish, shu asarni qaytadan yozish bilan teng qiyinchilikka ega. Asar mazmun mohiyatini to‘laqonli yoritish va personajlar ichki kechinmalarini ifodalashda badiiy psixologik tasvir vositalarini to‘g‘ri tanlay olish muhim hisoblanadi. Jumladan, tush, xotira-xayol, ichki va tashqi monolog, dialog, polilog, muallif bayoni, peyzaj psixologik tasvir vositalari tarjimaga badiiy sayqal berishda muhim rol o‘ynaydi. Rus tarjimonlari M. Loriye va N. Gal va o‘zbek tarjimoni E. Nosirov “Jenni Gerxardt” asarini tarjima qilishda bosh qahramon Jennining xarakter xususiyati, xayollari, ichki kechinmalarini tasvirlashda ichki monologlar tarjimasini mukammal tarzda amalga oshirgan desak xato bo‘lmaydi. Shuning uchun ham asar kitobxonlar qalbidan chuqur joy olib, bugungi kunda ham o‘z qadr-qimmatiga ega bo‘lgan mashhur romanlardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dreiser T. Jennie Gerhardt.–United States of America: Copyright, by Boni & Liveright, 1911.
2. ДрайзерТ. Женни Герхардт. – Тошкент: Ёш гвардия, 1982.
3. ДрайзерТ. Дженни Герхардт. –Москва:Финансы и статистика,1981.
4. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010.
5. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmonova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N.M.P.I
1984